



## SURXONDARYO AHOLISIDA TERI (QICHIMA) KASALLIKLARI UCHRASH SABABLARI VA OLDINI OLISH.

**Mustafaqulova Xilola**

**Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali**

**Davolash fakulteti 2 bosqich talabasi**

**Ilmiy rahbar: Sharipova Farida**

**tibbiy biologiya va gistologiya kafedrası katta o'qituvchisi**

**Annotatsiya** Surxondaryo aholisida teri kasalliklari ichida qo'tir kanasi keltirib chiqiruvchi qichima kasalliklari tez tez uchrab turadi. Hozirgi kunda Qo'tir (yetti yillik qichishish) kasalligining uchrashi, kelib chiqish sabablari o'rganish muhimdir.

Bu kasallik kanalar orqali kelib chiqishi haqida, uning zararli oqibatları profilaktikasi haqida aholiga tibbiy tushuncha berish zarurdir.

**Kalit so'zlar:** Qo'tir kanasi *Sarcoptes scabei*, qichima, lichinka nimfa papilla, segment, parazitoform, profilaktika.

**Mavzuning dolzarbligi** Mamlakatimizda teri kasalliklari xususan Qo'tir (yetti yillik qichishish) kasalligining uchrashi, kelib chiqish sabablari o'rganish muhimdir.

**Mavzuning maqsad va vazifalari** Qo'tir (yetti yillik qichishish) kasalligining keltirib chiqaruvchi parazitlar bilan kurashish va davolash chora tadbirlari o'rganish.


Qo'tir -teri ichidagi parazit bo'lib, odamlarda va boshqa ko'plab sutemizuvchilarda qo'tir kasalligini keltirib chiqaradi. Qo'tir kanasi *Sarcoptes scabei* oq yoki sarg'ish-oq rangda, erkagining uzunligi 0,23 mm va kengligi 0,19 mm gacha, urg'ochining uzunligi 0,45 mm va kengligi 0,35 mm gacha; tuxum 0,14 mm. Tanasi keng oval, buklangan, segmentatsiyaga ega emas. Erkagining 1-, 2- va 4-chi, urg'ochining 1- va 2-juft oyoqlarida so'rg'ichlari bor; qolganlarida tuklar bor. Ko'zlari bo'lmaydi. Pedipalplari hid va teginish funksiyalarini bajaradi.



Pedipalplari uch bo'lakli. Og'iz a'zolari kemiruvchi-so'ruvchi tipda. Tanasida ayniqsa orqa tomonida juda ko'p miqdorda har xil o'simtalari va tikanaklari bo'ladi.

Qichima kanasi teriga tushgandan keyin og'iz apparati va oyoqlari yordamida epidermis qatlamiga o'rnashib oladi. Tana ko'ndalang tirqish bilan sefalotoraks va qorin bo'shlig'iga bo'linadi. Sefalotoraks birlashgan pedipalplardan hosil bo'lgan proboscisga ega bo'lib, tirnoq shakliga ega bo'lgan gipostom va cheliceradan iborat. To'rt juft qisqa, juda qisqargan olti bo'lakli oyoqlar mavjud: birinchi ikkita juft tananing old qismida sefalotoraksning lateral tomonlarida joylashgan va shuning uchun ham qorin, ham dorsal tomondan aniq ko'rinadi. Qolgan ikki juft oyoq sefalotoraksning ventral tomonida tananing o'rtasidan bir oz pastroqda bo'g'inlangan. Oyoqlarining Uchida so'rg'ichlar bo'ladi. Urg'ochisining oyoqlarining birinchi va ikkinchi qismlarida so'rg'ichlar bor. Ular uy egasining terisida teshik qazishadi, ular ko'payadi; qon bilan oziqlanadi. Bu jarayon juda tez sodir bo'ladi (2-5 daqiqadan to 10 daqiqagacha). Kanalar terida parazitlik qilib umrini oxirigacha epidermisda yashaydi. Ular epidermisning shox qatlami bilan malpigi qatlami chegarasida o'rnashib, to'qimalar bilan zijlanadi va terida o'ziga yo'l ochadi. Urg'ochi kanalar bir kunda 2-3mm yo'l ochadi, erkak kanalar esa yo'l ochmaydi, urg'ochi kanalar ochgan yo'ldan boradi.

Tashqaridan qaraganda bu yo'llar to'g'ri yoki yoysimon bo'lib, oqish rangda ko'rinadi. Yo'llarning oxirida pufakchalar papulalar xosil bo'lib, shu joyda kanalar yotadi. Asosiy yo'ldan tashqari 1-2mm da urg'ochi kana tashqariga qarab kalta yo'l ochadi, bu ventilyatsiya teshiklaridir. Mana shu yo'llarga har kuni 2-3 tadan tuxum qo'yadi. Butun umri davomida (voyaga yetgan kana 1.5-2 oy umr ko'radi) urg'ochi kana 20 tadan 50 tagacha tuxum qo'yadi. Embryonal taraqqiyot 2-3 kun davom etadi. Tuxumdan chiqqan lichinka epidermisni Tesha olmaydi, shuning uchun yo'llardagi hujayra qoldiqlari bilan oziqlanadi. Lichinka tullab nimfaga aylanadi. nimfa 2 marta tullab voyaga yetadi



1.rasm Sarcoptes scabei tuzilishi

Rivojlanish sikli quyidagi davrlarni o'taydi: tuxum-lichinka-birinchi nimfa-ikkinchi nimfa- imago. Tuxum qo'ygandan boshlab to voyaga yetgunga qadar 12-15 kun ketadi. Erkak kana bitta nimfa davrini o'taydi. Faqat voyaga yetgan urg'ochi emas ,balki ikkinchi nimfa davrini o'taganlari ham ko'payi mumkin. Shunday xususiyati sababli ham ular tez ko'payadi. Kuzatishlarga qaraganda faqat nimfalarda kopulyatsiya kuzatilar ekan. Kana terining har qanday joyini yuqtirishi mumkin, lekin ko'pincha qo'llarning orqa qismida, barmoqlar, qo'ltilqlar va perineum orasidagi bo'shliqlarda joylashgan. O'tish joylari terida oq-iflos rangli tekis yoki o'ralgan chiziqlar shaklida ko'rinadi. Kana qattiq qichishishga olib keladi, kechasi esa yomonroq. Biror kishi zararlangan joylarni tirnaydi, tirnalgan joylarga mikroby infeksiyasi kiradi, yiringlash va yallig'lanish jarayonlari paydo bo'ladi.

**Xulosa** Akariform kanalarining bu turi odamda xavfli bo'lgan qichima kasalligini keltirib chiqaradi va gigiyenaga rioya qilinmasa, odamda yana qaytadan uchrashi mumkin bo'lgan kasalliklar sirasiga kiradi. Kanalar tez ko'payadigan bo'lgani uchun odamga yuqqandan so'ng terida tezda ko'payib ketadi. Parazitlar jidab bo'lmas darajada badanni qichishtiradi , qashlanganda ular tirnoqlar orasiga kirib qoladi va keyin ushlangan teriga ham oson yuqadi. Kasal odam bilan qo'l berib ko'rishganda ham , yoki uning buyumlaridan foydalanganda ham kana yuqadi. Parazitologik tashxislashda kanalarni o'zi ochgan yo'ldan igna bilan olinib, mikroskopda ko'riladi.



Kasallikning oldini olish uchun bemorni klinikaga yotqizilib, u foydalangan buyum, kiyim-kechaklar dezinfeksiya qilinishi va eng muhimi har doim sanitariya gigiyena qoidalariga amal qilish lozim. Qo'tirning tezligi haroratga salbiy va namlikka ijobiy bog'liq.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1.Parazitologiya va invazion kasalliklar. DJ.A.Azimov Toshkent-2024
- 2.Yuqumli kasalliklar. Epidemiologiya va parazitologiya. E.I.Musaboev Toshkent-2017
- 3.Parazitologiya S.Dadayev Toshkent-2006
4. Wikipedia (<https://ru.m.wikipedia.org/wiki/>)Чесоточный зудень (лат. Sarcptes scabiei)
- 5.<https://qqses.uz/uz3731.html> sayti.
- 6.<https://bilim.tma.uz> sayti.